



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



## SEMINAR VA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHGA QO'YILADIGAN DIDAKTIK TALABLAR

**Obidaxon Baxodirjonovna Po'latova**

Guliston davlat pedadodika instituti Pedagogika  
yo'nalishi 1-kurs magistranti

Tel: +998947920801

E-mail: obida.pulatova1993@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15378985>

**Annotatsiya.** Seminar va amaliy mashg'ulotlar ta'lim jarayonining ajralmas qismlari bo'lib, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablar, ularning o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Seminar mashg'ulotlari o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ilmiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, amaliy mashg'ulotlar mavjud bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada shuningdek, ushbu mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan metodik yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar haqida ham so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** seminar, amaliy mashg'ulotlar, didaktik talablar, o'quv jarayoni, pedagogik texnologiyalar, metodik yondashuvlar.

**Аннотация.** Семинары и практические занятия являются неотъемлемой частью образовательного процесса, играя ключевую роль в углублении знаний и развитии навыков студентов. В данной статье анализируются дидактические требования к организации семинаров и практических занятий, подчеркивается их значение и роль в учебном процессе. Семинары направлены на развитие независимого мышления и исследовательских навыков студентов, в то время как практические занятия способствуют закреплению теоретических знаний через практическое применение. Также рассматриваются необходимые методологические подходы и педагогические технологии для эффективной организации этих занятий.

**Ключевые слова:** семинар, практические занятия, дидактические требования, учебный процесс, педагогические технологии, методологические подходы.

**Annotation.** Seminars and practical sessions are integral components of the educational process, playing a significant role in deepening students' knowledge and skills. This article analyzes the didactic requirements for organizing seminars and practical sessions, emphasizing their role and importance in the learning process. Seminars aim to enhance students' independent thinking and research abilities, while practical sessions focus on consolidating theoretical knowledge through hands-on application. The article also discusses the necessary methodological approaches and pedagogical technologies to effectively conduct these sessions.

**Key words:** seminar, practical sessions, didactic requirements, educational process, pedagogical technologies, methodological approaches.



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



## KIRISH

Seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari: "Ta'lim sifatini oshirish" bo'yicha bir qator hujjatlarda amaliy mashg'ulotlar va inavatsion o'qitish usullari alohida takidlangan. Amaliy mashg'ulotlar va seminarlarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va kreativ yondoshuvlar talab etiladi. Yoshlarning nazariy bilimlari amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlanishi kerakligini ta'kidlangan. Prezidentning 2020-yil 29-dekabrda murojaatnomasida: Ta'lim tizimida yangi o'quv metodlari joriy etilishi, jumladan, amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati oshirilishi zarurligi qayd etilgan. Seminar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhurligi belgilangan.

Talim to'g'risidagi qonundaning quyidagi 5-12-25-moddalarida ham seminar va amaliy mashg'ulotning ahamiyati haqida ham fikr yuritilgan.

*5-modda (Ta'limning asosiy tamoyillari):*

Nazariya va amaliyot uyg'unligi bu modda seminar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar bilimni mustahkamlash zaruratini belgilaydi.

*12-modda (Ta'limning mazmuni):*

Amaliy mashg'ulotlar- ta'limning ajralmas qismi bo'lib o'quvchilarni ish faoliyatiga tayyorlash uchun xizmat qiladi.

*25-modda (Kasb -hunar ta'limi)*

O'quvchilar kasbiy bilimlari va ko'nikmalarini oshirish uchun amaliy mashg'ulotlarga alohida e'tibor qaratishi kerak [1].

Zamonaviy ta'lim jarayonida seminar va amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mashg'ulotlar ta'limning interfaol usullaridan biri bo'lib, o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi. Shu sababli, seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda didaktik talablarni o'rganish va ularga rioya qilish ta'lim samaradorligini oshirishda dolzarb masalalardan biridir. Seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Masalan, "Kasb-hunar kollejlarda seminar mashg'ulotlarini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari" nomli maqolada seminar darslarining maqsadi, shakllari va funksiyalari yoritilgan. Shuningdek, "O'quv mashg'ulotlarida didaktik talablardan va pedagogik texnologiyalardan foydalanish" maqolasida o'quv jarayonida didaktik talablarning ahamiyati va ularni amalga oshirish yo'llari tahlil qilingan. Bundan



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



tashqari, "Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi" kurs ishida seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari haqida ma'lumot berilgan [3]. Agar seminar va amaliy mashg'ulotlar didaktik talablar asosida to'g'ri tashkil etilsa, o'quvchilarning nazariy bilimlari mustahkamlanadi, amaliy ko'nikmalari rivojlanadi va mustaqil fikrlash qobiliyatlari oshadi, bu esa ta'lim samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

## **METODOLOGIYA**

Seminar va amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun quyidagi didaktik talablar bajarilishi lozim:

1. *O'quv maqsadlarini aniqlash:* Seminar yoki amaliy mashg'ulot maqsadlari aniq belgilanishi kerak. Ushbu maqsadlar talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

2. *Mundarija va mavzuni rejalashtirish:* Mashg'ulot mavzusi dolzarb va talabalarning ehtiyojlariga mos bo'lishi kerak. Har bir bosqichda o'quv jarayonida muhim bo'lgan asosiy tushunchalar va mavzularni qamrab oladi.

3. *Interfaol metodlardan foydalanish:* Seminar va amaliy mashg'ulotlarda "Jamoaviy ish", "Klaster usuli", "Bahs-munozara" kabi interfaol usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Talabalarning faolligini oshirish uchun vaziyatli masalalar yoki rolli o'yinlar qo'llanishi mumkin.

4. *Materiallarni tayyorlash:* Dars uchun visual materiallar (slydlar, grafiklar, jadvallar) va uslubiy ko'rsatmalar oldindan tayyorlanishi zarur. Talabalar foydalanishi lozim bo'lgan qo'shimcha o'quv resurslari (kitoblar, maqolalar) taqdim etiladi.

5. *Talabalarning faol ishtirokini taminlash:* Talabalar muhokama, savol-javob yoki amaliy topshiriqlar orqali jarayonda faol qatnashishi lozim. Har bir talabaga shaxsiy fikrlarini bildirish va o'z imkoniyatlarini namayon etish uchun sharoit yaratiladi.

6. *Nazorat va baholash:* Mashg'ulot davomida talabalarning bilim darajasini baholash uchun kichik testlar, amaliy topshiriqlar yoki loyiha ishlari o'tkazish mumkin. Qatnashganlik, ijodkorlik va aniqlik ham hisobga olinadi.

7. *Refleksiya va tahlil:* Mashg'ulot yakunida talabalar bilan birga faoliyat natijalari tahlil qilinadi. O'quv jarayonini yaxshilash uchun taklif va mulohazalar yig'iladi.

OTMda talabalarda mustaqillik va amaliy ko'nikma-malakalarni rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar ham alohida ahamiyatga ega.

**Amaliy mashg'ulot** (lot. "praktikos" – faol, ishchan) – talabalarda o'quv fanining alohida nazariy g'oyalarni tahlil qilish ko'nikma, malakalarini shakllantirish, nazariy



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'uloti shakli. Bu turdagi o'quv mashg'ulotlari maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba maydonida tashkil etiladi.

## **Amaliy mashg'ulotlarda bilish faoliyati quyidagi besh bosqichda tashkil etiladi:**

1. O'qituvchining tushuntirishi
2. Ko'rsatma berish
3. Tajribani tashkil etish
4. Mustaqil faoliyatni tashkil etish
5. Nazorat

1. O'qituvchining tushuntirishi (topshiriq va faoliyat mohiyati o'qituvchi. Amaliy mashg'ulot (lot. "praktikos" – faol, ishchan) – talabalarda o'quv fanining alohida nazariy g'oyalarini tahlil qilish ko'nikma, malakalarini shakllantirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'uloti shakli.

*Amaliy mashg'ulotning asosiy boschiqlari:* o'qituvchining tushuntirishi, ko'rsatma berish, tajribani tashkil etish, mustaqil faoliyatni tashkil etish, nazorat.

Seminar tashkil etish shakli:

1. Seminar mashg'uloti mavzusi.
2. Seminar mashg'uloti rejasi.
3. Tayanch tushunchalar.
4. Seminar mavzusi bo'yicha savol (muammo)lar.
5. Seminar savol (muammo)lari bo'yicha talabalarning chiqishlari.
6. Chiqish yuzasidan savol-javoblar (savollar ham o'qituvchi, ham talabalar tomonidan berilishi mumkin).
7. Ma'ruzachi talabalarning fikrlarini to'ldirish.
8. Mashg'ulotning tashkil etish yuzasidan muhokama va xulosa.
9. Talabalar va guruhlar faoliyatini baholash.
10. Mashg'ulotga yakun yasash.
11. Navbatdagi mashg'ulot mavzusining e'loni va uyga vazifa tomonidan og'zaki bayon etilib, talabalarning nazariy jihatdan anglashlari ta'minlanadi).

Seminar bayonida talabalar maqsadga muvofiq metodik usullarni qo'llash asosida bir-biriga bog'liq masalalar, dalillar tizimini keltirishga, har bir nazariy fikr asoslashga e'tibor qaratishi lozim. Har bir dalil va izohlar maqsadga erishishga yo'naltirilishi, asosiy g'oya, mazmun va ilmiy xulosalar yoritilishi kerak. Odatda har bir seminarda ikkitadan to'rttagacha masala hal qilinadi; ba'zan har bir masala o'z ichiga bir nechta kichik masalalarni ham oladi. Seminar mashg'ulotiga yakun yasalib, qisqacha xulosa



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



chiqariladi. Talabalar diqqati uchun mazkur mavzudagi eng asosiy tushuncha, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, hodisalar ta'kidlanadi. Qo'yilgan maqsadga qay darajada erishilganligi tahlil qilib, baholanadi.

Seminarining yakuniy qismi, xulosasida quyidagilar ko'rsatilishi shart:

- mavzu yuzasidan asosiy xulosalar;
- ma'ruzadagi asosiy tayanch tushunchalar;
- talabalarda bilishga va o'rganishga qiziqish uyg'otuvchi hamda o'zlashtiruvchilarni nazorat qilish imkonini beruvchi savollar turkumini keltirilishi.

OTMda ko'p holatlarda seminar mashg'uloti bahs-munozara asosida tashkil etiladi. Talabalarning mashg'ulot jarayonida faol ishtirok etishlari uchun ularning fan asoslariga doir o'quv manbalari bilan yetarlicha ta'minlanishlari ham muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, seminarda faol ishtirok etish uning nutq madaniyatini, mustaqil fikr yuritish, o'z fikrini dadil ifodalash, shaxsiy mulohazalarni himoya qilish hamda munozarada samarali ishtirok etish malakasini shakllantiradi, o'z kuchiga ishonchni hosil qiladi. Shuningdek, jamoa bilan birga ishlash tajribasiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Asosan oliy o'quv yurtlarida, ilmiy to'garak, anjumanlarda qo'llaniladi.

Seminar mashg'uloti talabalarning bilim olishlari, o'quv materialini puxta o'zlashtirishlari va olgan bilimlarini kelgusida real hayotda qo'llashni o'rganishlarida alohida o'rin tutadi. Shuning uchun ham seminar mashg'ulotini qiziqarli, talabalarni faol qatnashishlarini ta'minlaydigan uslublarni qo'llab dars o'tish muhim ahamiyatga ega.

Ma'ruzada odatda ko'proq o'qituvchi tomonidan hikoya va tushuntirish metodlari qo'llaniladi. Talabalar darsda sust ishtirok etadi. Seminar mashg'ulotlarida esa turli metodlarni qo'llash orqali talabalarning faolligini oshirish imkoniyati keng bo'lib, talabalar ma'ruza, kitob, jurnal va hokazolar orqali olgan axborotlari, bilimlarini tushungan holda gapirib berish, uni modellashtirish asosida sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu turdagi mashg'ulotlarni o'tkazishda qo'llanadigan metodlar turlicha. Ularning samaradorligi u yoki bu metodni tanlash o'rganilayotgan fanning xususiyati, o'tilayotgan mavzu, mashg'ulotning maqsadi hamda tanlangan metodning qo'llash imkoniyatiga bog'liq. Seminar mavzusi ma'ruza mavzusi bilan bir xil bo'lishi shart emas. Ayrim paytlarda mavzu savollarini ma'ruzada ko'tarilsa, ayrimlarini seminarda muhokama qilish mumkin. Ayrim vaziyatlarda seminar mashg'uloti va uning mavzusiga boshqacha yondashish mumkin. Bordi-yu, mavzuni mustaqil o'rganish uchun adabiyotlar va manbalar yetarli bo'lsa, seminarda ana shu mavzuni muhokama qilish mumkin. Bunday usul, ayniqsa, mavzuni o'rganish uchun vaqt yetishmagan paytda qo'l keladi. OTMda seminar mashg'ulotini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun,



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



eng avvalo, asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni sinchkovlik bilan o'rganib chiqish talab etiladi. Adabiyotlarni o'rganish dars jarayonida talabalarning diqqatini qaratish lozim bo'lgan masalalarni alohida ajratish, mavzuni qaysi metodlar asosida o'rganishni rejalashtirish va darsga tayyorlanish imkonini beradi. Auditoriyada muhokamani jonli, jo'shqin tashkil etishga imkon beradigan savollarning qo'yilishi natijasida mavzu talabalar tomonidan chuqur o'rganiladi. Shu sababli bu kabi savollarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Mavzuning talabalar tomonidan samarali o'zlashtirilishini ta'minlashda savollarning murakkab bo'lishiga erishish va alohida savollardan savollar tizimiga o'tish maqsadga muvofiqdir. Bu esa qo'yilgan savollarga javob berish, muammoni, savolni muhokama qilish jarayonida vujudga kelgan muammoli vaziyatni o'rganib, uni yechish imkoniyatini kengaytiradi. Mavzuni o'rganishni chuqurlashtirishga savol shaklini o'zgartirib, uni murakkablashtirish orqali erishish mumkin. Talabalarni mavzuni u yoki bu tayanch tushunchalarni qay darajada tushunganlarini sinash, puxta o'zlashtirishlarini ta'minlash uchun muhokama qilinayotgan savol, muammolarni talabalar bilan birgalikda tahlil qilish, ular asosida mini testlarni o'tkazish mumkin. Seminarlar quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- Ta'lim berish;
- Tarbiyalash;
- Rivojlantirish;
- Tashxislash va korrektsiyalash.

Yuqorida bayon etilgan ma'ruza funktsiyalari quyidagi mazmunga ega:

1) *Ta'lim berish:* ma'ruzalar jarayonida o'zlashtirilgan bilimlarni tizimlashtirish, mustaqil ishlash orqali ularni boyitish, o'zida umumilmiy va kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga nisbatan javobgarlik, o'z-o'zini rivojlantirib borish ko'nikma, malakalariga ega bo'lish;

2) *Tarbiyalash:* talabalarda tinglash, idrok etish, munozarada ishtirok etish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi, ularda ma'naviy-axloqiy sifatlar – kamtarlik, jamoaviylik, insonparvarlik, mehnatga ijobiy muosabat, mehnatsevarlik, xushmuomalalilik, shuningdek, ijtimoiy-psixologik xislatlar shakllanadi;

3) *Rivojlantirish:* talabalarda adabiyotlar, manbalar, dalillar bilan ishlash, ularni tahlil qilish hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

4) *Tashxislash va korrektsiyalash:* talabalarning mavzularni o'zlashtirganlik, ularda kasbiy ko'nikma, malakalarning shakllanganlik darajasini tahlil qilish, yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash.

Seminar mashg'ulotlari talabalar ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ish bilan uyg'un bo'lishi zarur. 1-kurs talabalari bilan birgalikda ma'ruza-



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



seminar o'tkaziladi. Uning asosiy vazifasi – talabalarda darsliklar, dastlabki manbalar bilan ishlash, abstrakt tadqiqotlar o'tkazish, tezislar, ma'ruzalar va ilmiy ma'ruzalar tayyorlash qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat. Dastlabki seminarlar vaqtida o'qituvchi talabalarga quyidagilar haqida ma'lumot berishi zarur:

- ma'lumotlar – matnlar, axborot manbalarida yoki mualliflar tomonidan bildirilgan qaydlar;

- nutq rejasi – ta'limning asosiy mazmunini aks ettiradigan aniq shakllangan, izchillikli fikrlarning to'plami;

- tezislar – matnning qo'shimcha tushuntirishdan holi asosiy qoidalari;

- qisqacha ma'lumot – manbalardan olingan axborotlar yuzasidan qisqa bayon.

Seminar-sharhlar talabalar tomonidan muayyan ilmiy ishlar natijalarini qayta ishlashda tayyorlanadi. Ularning vazifasi talabalarda ilmiy matnni tahlil qilish va to'g'ri talqin qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Bunday seminarlar birinchi-ikkinchi kurslarda samarali sanaladi, yuqori kurslarda ulardan deyarli foydalanilmaydi. Birinchi bosqichda talabalarga o'zlarining mustaqil ishlarini ummulashtirish, aqliy faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berish talab etiladi. Masalan, ularning e'tiboriga quyidagi tavsiyalarni havola qilish mumkin:

1. Har kuni bir vaqtning o'zida mustaqil ishlash asosida o'zingizda doimiy ravishda fikrlash ko'nikmasini shakllantiring.

2. Aqliy mehnat va dam olishning o'zaro mutanosib bo'lishiga erishing! Bu sizga aniq va bir maromda samarali ishlash imkonini beradi.

3. Bir maromda samarali ishlash aqliy mehnatni va dam olishni to'g'ri tashkil etishda muhim ahamiyatga egaligini yodda tuting.

4. Har kuni bajaradigan ishlaringizni aniq belgilang va istiqbolni ham unutmang! Murakkab ishlarni bajarishda ularni alohida qismlarga ajratib oling! Shundagina uni samarali bajarasiz.

5. Dam olish vaqtida jismoniy tarbiya va sport yoki jismoniy mehnat bilan shug'ullaning!

6. To'laqonli uxlashga odatlaning! Chunki u tananing biologik ehtiyojini qondirishga yordamberadi.

7. Ish joyingizni tartibli tuting! Bu ish faoliyatingizni yaxshilaydi.

8. Har kungi ishlaringizning natijalari bo'yicha xulosa chiqarishni unutmang!

9. Aqliy mehnatning har bir natijasini yozma bayonot shaklida qayd etib boring! Yodingizda bo'lsin: "O'z vaqtida yozib qo'yilmagan fikr, g'oya yo'qolgan xazinadir" (D.I.Mendelyev).

Seminar mashg'ulotining didaktik maqsadlari quyidagilardan iborat:



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



- Bilimlarni, chuqurlashtirish, tizimlashtirish, mustahkamlash.
- Bilimlarni tekshirish va nazorat qilish.

## **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda didaktik talablarning qo'llanilishi o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar natijasida quyidagi asosiy jihatlar aniqlangan:

1. *O'qituvchining kasbiy mahorati va bilim darajasi:* Seminar mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi, zamonaviy tadqiqotlardan xabardor bo'lishi va talabalarining savollariga aniq javob bera olishi zarur. Bu talabalar uchun o'qituvchini ishonchli manba sifatida qabul qilishlariga yordam beradi.

2. *Didaktik o'yinli ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi:* Amaliy mashg'ulotlarda didaktik o'yinlardan foydalanish talabalarining faolligini oshiradi va o'quv materialini o'zlashtirishni yaxshilaydi. Bu usul, ayniqsa, pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitishda samarali hisoblanadi.

3. *Pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi:* Seminar va amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonining sifatini oshiradi va talabalarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4. *O'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish:* Seminar va amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va o'z fikrlarini asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda didaktik talablarning to'g'ri qo'llanilishi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda didaktik talablarni inobatga olish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Seminar mashg'ulotlari o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ilmiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, amaliy mashg'ulotlar mavjud bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun didaktik talablar, metodik yondashuvlar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarur. Natijada, o'quvchilarning bilim olishdagi faolligi oshadi va ularning kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi.



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. I.A.Karimov. "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" - Toshkent. Sharq nashriyoti.
3. B.T.Jurayev. Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi fanidan kurs ishi tayyorlash bo'yicha metodik ko'rsatma. Buxoro – 2021.
4. B.X.Xodjayev. "Umumiy pedagogika" – Toshkent-2017.
5. B.T.Jurayev. Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi. Buxoro - 2022.
6. S.T.Turg'unov, L.A.Maqsudova, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova, M.A.Umaraliyeva. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari. Darslik - Toshkent-2014.
7. M.M. Axmedjanov, B.Q. Xo'jayev, Z.D. Hasanova. Pedagogik mahurat. Toshkent – 2010.
8. M.Jumayev. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. Darslik.
9. T.Atamuratova, X.Ergasheva, M.Qurbonov. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. Darslik.
10. "O'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent – 2023.
11. O'ktamova Sh.U. JDPUsirtqi bo'lim "Maktabgacha va boshlang'ich yo'nalishlarida masofaviy ta'lim" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi "Pedagogik jarayonni tashkil qilishda tizimli yondashuv" nomli maqola.
12. Kamiljanovna, Z. D., O'G'Li, A. S. J., & Jumayeva, M. B. (2022). The Analysis of Higher Order Thinking Skills. Science and innovation, 1(Special Issue 2), 672-676.
13. Jumayeva, M. B. (2022). Oliy ta'limda innovatsion usul va vositalar. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 20), 214-226. doi: 10.24412 (Vol. 226). 2181-1784-2022-20-214.
14. Мардонова, Р. О. Teaching Four Skills In The Primary Classroom Обучение Четырём Навыкам В Начальной Школе. Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 116.
15. Djabbarova, S., Tadjieva, M., & Ra'no Mardonova, G. T. (2020). Problem Based Learning and Its Efficiency in Teaching Process. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(2), 291-296.
16. Мардонова, Р. О. (2018). Обучение Четырём Навыкам В Начальной Школе. Гуманитарный трактат, (21), 113-116.
17. Ochildieva, M. R. (2019). The Study of the Modification of Sounds in Coherent Speech in English and Uzbek Languages. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
18. Aleksandrovna, T. A., Stanislavovna, S. L., & Abdusamiyevna, V. A. (2021). Gender stereotypes in semantics of Spanish proverbs. Linguistics and Culture Review, 1336-1345.
19. Mardonova, R. O., & Turdieva, O. O. K. (2018). The Impact Of Tpr Method On Children's Vocabulary Learning Process. Гуманитарный трактат, (29), 122-123.